XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING QARORI

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko‘chasi 8-uy. 190700, tel.: (+99876) 47-77-338

2021 - yil 26 - avgust VI-33-29-8-108-K/21 Oltinsoy tuman hokimligi

Tumandagi “Qo‘sharcha” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan yangi tashkil etiladigan “Kichik Vaxshivor” mahalla fuqarolar yig‘ini nomini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi 48-son “Shahar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining 2020 yil 15 fevraldagi 06-01/10-sonli “Geografik ob’ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi tuman komissiyasi” ning yig‘ilish bayoni, Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2021 yil 24 maydagi 17-01/189-son hamda “Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqidagi 2021 yil 28 iyundagi 01-14-465 sonli Davlat ekspertizasi xulosasini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi :**

1. Tuman komissiyasining 2020 yil 15 fevraldagi “Geografik ob’ektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtirish masalalari to‘g‘risida” gi 06-01/10-sonli yig‘ilish bayoni, Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining 2021 yil 24 maydagi 17-01/189-son yig‘ilish bayoni hamda “Geografik ob’ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining yig‘ilish bayoni hamda 2021 yil 28 iyundagi 01-14-465-sonli

Davlat ekspertizasi xulosasi ma’qullansin.

2.Tumandagi “Qo‘sharcha” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan yangidan tashkil etiladigan mahalla fuqarolar yig‘ini nomi “Kichik Vaxshivor” deb tasdiqlansin.

3. Tuman hokimi o‘rinbosari (Q.Safarov) o‘n kun muddatda “Kichik Vaxshivor” deb yangidan tashkil etiladigan mahalla fuqarolar yig‘inini tashkil etish bo‘yicha tuman hokimi qarori loyihasini tayyorlasin, shuningdek, ushbu mahalla fuqarolar yig‘inini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish hamda ushbu yangidan tashkil etiladigan mahallaga muhr va tamg‘alar buyurtma berish ishlarini amalga oshirsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (O.Jiyanov)ga bir oy muddatda tumanda yangi tashkil etiladigan “Kichik Vaxshivor” mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etilishi munosabati bilan ushbu mahallada doimiy ro‘yxatda turgan fuqarolarning fuqarolik pasportlaridagi doimiy yashash manzillariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Eshqobilov) bir oy muddatda tumanda yangi tashkil etiladigan “Kichik Vaxshivor” mahalla fuqarolar yig‘inini geografik chegara hududlariga aniqlik kiritsin hamda mahallaning geografik xaritasini ishlab chiqib, tuman komissiyasiga qonun talablariga muvofiq tarzda ma’lumotlarni taqdim etilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosari (Q.Safarov) tuman Moliya bo‘limi (J.Jo‘raev) bilan birgalikda bir oy muddatda tumanda yangi tashkil etiladigan “Kichik Vaxshivor” mahalla fuqarolar yig‘ini uchun tasdiqlanadigan shtatlar jadvalini qayta ko‘rib chiqsin va ushbu mahalla fuqarolar yig‘iniga munosib kadrlarni joylashtirish maqsadida kadrlar ro‘yxatini shakllantirish vazifalarini amalga oshirsin.

7. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilishni xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Raxmanov) zimmasiga yuklatilsin.

8. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Кенгаш раиси **А.Т.Джумаев**